

2020- yil yanvar- iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaliviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.
- Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 20335 birlikda

Ularning umumiyy sonidagi ulushi -
61,2 %


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari -
121,9 %



2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 61,2 %, sanoat - 15,5 %, qurilish - 10,3 % ga yetdi va atigi 13,0 % i

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (43,7 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,5 % ni tashkil etdi.




2020- yil
yanvar- iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,5 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 16,7 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 38,7 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,4 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 40,3 % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra ularning soni 5,7 mingtaga ko'paydi.



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'r-satayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da
(fermerva dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020- yil yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish – 39,5 % ekanligi kuzatildi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,4 mingtaga ko'paydi va 5,7 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 26,7 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,3 mingtaga ko'paydi va 1,4 mingtani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-y. 1-
iyun holatiga

71,5 %

2020-y. 1-
iyun holatiga

66,3 %

2020- yil
yanvar- iyun

2020- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 66,3 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 71,5 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 14402 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 2389 tani tashkil etdi va o'sishi esa 19,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyl sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 61,2 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 67,7 % ekvivalentida qayd etildi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

2020- yil yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 608,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 443,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
102,9 %

Hajmi 443,6
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
3608,4
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

2020- yil
yanvar- iyun

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	3608,4	102,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	180,2	107,8
Moliyaviy xizmatlar	709,2	130,9
Transport xizmatlari	546,3	95,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	518,3	96,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	103,5	83,4
Savdo xizmatlari	1421,3	100,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	95,4	84,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	145,9	147,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	43,2	100,0
Ijara xizmatlari	78,8	86,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	86,8	85,5
Shaxsiy xizmatlar	89,0	87,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,4	70,6
Boshqa xizmatlar	72,4	83,7

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-iyun oylarida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 39,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (15,1 %), moliyaviy xizmatlar (19,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

2020- yil
yanvar- iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 2,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,2 %, ijara sohasidagi xizmatlari - 2,2 %, shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi, xizmatlarning ulushi 1,2 % dan qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (47,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (4,0 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmogda.

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.




2020- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 39,4 % ni tashkil etib, bu 1421,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 82,2 % iga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari)

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2020- yil
yanvar- iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,1 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yil yanvar-iyun oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
709,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi
19,7 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**212,3 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 30,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

2020- yil
yanvar- iyun

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,7 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,9 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,4 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

2020- yil yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



2020- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 180,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 107,8 % ga yetdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,1 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,5 %, noshirlilik xizmatlari - 1,7 % va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



2020- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 145,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 147,1 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2020- yil
yanvar- iyun

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 96,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 103,5 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 7,5 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi



103,5 mlrd. so'm



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi

7,5 mlrd. so'm



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi

96,0 mlrd. so'm

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

2020- yil
yanvar- iyun

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida)



2020- yil yanvar-iyun oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil yanvar-iyun oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Surxondaryo viloyati *	3608,5	104,1	1366,3
Termiz sh	1733,2	100,5	9586,1
tumanlar:			
Oltinsoy	99,8	100,5	563,4
Angor	85,4	101,2	643,3
Bandixon	22,5	100,2	299,0
Boysun	48,5	102,3	418,3
Muzrabot	102,9	101,9	724,9
Denov	758,9	102,7	1 964,5
Jarqo'rg'on	112,8	102,1	515,5
Qumqo'rg'on	102,9	101,9	438,1
Qiziriq	92,9	100,1	813,1
Sariosiyo	114,0	100,4	542,8
Termiz	83,2	101,5	1 075,1
Uzun	72,2	100,8	419,8
Sherobod	82,1	100,7	423,0
Sho'rchi	97,2	101,7	464,2

^{*)} Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz sh (1733,2 mlrd. so'm), Denov (758,9 mlrd. so'm), Sariosiyo (114,0 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (112,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

2020- yil
yanvar- iyun

Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1366,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1 366,3 ming so'm

2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (76) 225-65-91

2020- yil
yanvar- iyun

**Surxondaryo viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

20